Fanlar akademiyasining 80 yilligi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil topganligining – 80 yilligi

2023-yilda Fanlar akademiyasi tashkil topganligiga 80 yil bo‘ldi. Fanlar akademiyasi O‘zbekistondagi eng yirik va muhim davlat ilmiy tashkilotidir. Fanlar akademiyasi tegishli ilmiy yo‘nalishlarda keng ko‘lamli fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boradi. Shuningdek, Respublika uchun ustuvor bo‘lgan ilmiy-texnikaviy va innovatsion dasturlarni ishlab chiqadi, oliy malakali ilmiy kadrlar tayyorlaydi, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishini va mamlakatning iqtisodiy, intelektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi yuqori texnologiyalarni amalda qo‘llashni ta’minlaydi. Fanlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining doimiy hamda har tomonlama ko‘magi ostida amalga oshirilmoqda.

2017-yilga qadar Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlari soni yildan-yilga qisqarib borar edi. Ilmiy tashkilotlarning binolari ta’mirtalab, moddiy-texnik bazasi o‘ta abgor va, bularning natijasi o‘laroq, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning sifati dunyoning rivojlangan ilmiy markazlarininkidan anchayin tafovutli edi. Ilmiy kadrlar salohiyati sohasida ham jiddiy savollar vujudga kelgan edi. Kadrlar qo‘nimsizligi ham yuqori darajada edi.

2017-yil 17-fevralda “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-sonli tarixiy Prezident qarori e’lon qilindi. Turli vazirlik va idoralar tasarrufiga o‘tkazilgan 10 dan ortiq ilmiy tashkilotlar Fanlar akademiyasi tasarrufiga qaytarildi.

Bulardan tashqari Fanlar akademiyasi tizimida Navoiy bo‘limi, Immunologiya va inson genomikasi instituti, Energetika muammolari instituti, Davlat va huquq institutilari tashkil qilindi.

2018-2022-yillarda Fanlar akademiyasi va boshqa vazirliklarga ularni zamonaviy ilmiy-laboratoriya asbob-uskunalari bilan jihozlash, shuningdek, zarur materiallar va butlovchi qismlar bilan ta’minlash uchun 32,2 mln. dollardan ortiq mablag‘ ajratildi.

So‘nggi yillarda akademiya faoliyatini takomillashtirish va qo‘llab-quvvatlash,

yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash darajasi va sifatini oshirish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ilm-fanning rolini yanada mustahkamlash va oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining bir qator muhim qonunlari, O‘zbekiston Prezidenti va hukumatining 40 dan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Fanlar akademiyasi faoliyatini tubdan modernizatsiya qilish va takomillashtirish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning ilm-fan namoyondalari bilan Prezident administratsiyasida, O‘simlik moddalari kimyosi institutida, Yadro fizikasi institutida, O‘zbekiston Milliy universitetida hamda Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasida bo‘lgan uchrashuvlari ham yurtimiz ilm ahli, xususan Fanlar akademiyasi uchun tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Mazkur uchrashuvlar natijasida O‘simlik moddalari kimyosi institutida birinchi marta “GMP (Good Management Practice) talablari bo‘yicha dori vositalari substansiyalarini ishlab chiqarish texnologiyalarini sinash ilmiy-texnologik markazi” tashkil etildi.

Yadro fizikasi institutida va “Radiopreparat” davlat korxonasida GMP standartlari bo‘yicha radiopreparatlar uchun nofaol qo‘shimchalar ishlab chiqarish markazi ishga tushirildi, asosiysi, ularni ishlab chiqarishda GMP talablarini ta’minlandi.

Foton korxonasining yadro reaktori to‘liq demontaj qilindi. Yuqori boyitilgan yoqilg‘i chiqarib tashlandi, gamma nurlantirish qurilmasi yo‘q qilindi. To‘liq dezaktivatsiya amalga oshirildi va hudud yashil maydonga aylantirildi. Mazkur loyiha Yadro fizikasi instituti tomonidan MAGATE, AQSH energiya departamenti hamda “Rosatom” davlat korxonasi ko‘magida amalga oshirildi.

2018-yil 28–30-oktyabrda Urganchda talabalar o‘rtasida Muxammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika olimpiadasi ilk bor o‘tkazildi. Mazkur olimpiadani o‘tkazish tashabbusini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil sentyabr oyida Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotining ilm-fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi Sammitida ilgari surgan edi. Mazkur xalqaro olimpiadada 58 ta universitetdan 334 ta, jumladan dunyoning 19 mamlakatidan 35 universitet vakillari ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida faoliyat yuritadigan Respublika fan va texnologiyalar kengashi tashkil etildi.

Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida Matematika institutning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

Botanika va Zoologiya institutlari faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy ilmiy laboratoriya va asbob-uskunalar bilan jihozlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Umumiy va noorganik kimyo institutida “Ko‘mir kimyosi va texnologiyasi” yangi ilmiy yo‘nalishi faoliyatini yo‘lga qo‘yildi.

Botanika institutining noyob o‘simliklar kolleksiyasiga “O‘zbekiston milliy gerbariysi” maqomi berildi.

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi 5 yil davomida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim vazirligi va iqtisodiyot sohasiga berib yuborilgan bir qator muassasalarni akademiya tizimiga qaytarish natijasida, shuningdek, bir qancha yangi ilmiy muassasalar tashkil etilishi (jami 12ta) munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari soni qariyb 1,5 barobar oshdi (23tadan 35taga).

Buning natijasida Fanlar akademiyasining ilmiy salohiyati sezilarli darajada oshdi va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar yangi sifat darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 366-sonli qarori asosida Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan tizimga o‘tdi.

Akademiya olimlarning ish haqi 3 marotabadan ko‘proq miqdorda (masalan katta ilmiy xodimning o‘rtacha maoshi 2017-yilda 2 100 000 dan 2023-yilda 6 400 000 so‘mgacha), akademiklarning gonorari esa 2 marotabadan ko‘proq miqdorda (2017-yilda 1 700 000 dan 2023-yilda 4 100 000 so‘mgacha). Respublikadagi ilmiy darajaga ega ilmiy xodimlarning maoshlariga 30 (Fan nomzodi va PhD) va 60 (Fan doktorlari) foizgacha ustama haq to‘lash mexanizmi joriy qilindi.

Fanlar akademiyasi akademiklari bir nafar kuzatuvchi bilan birga bir yilda bir marta o‘zlari uchun maqbul bo‘lgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi, respublika davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida hamda Yalta va Kislovodsk shaharlaridagi “O‘zbekiston” kurort-sog‘lomlashtirish aksiyadorlik jamiyatining sanatoriylarida sog‘lomlashtirish kursidan bepul foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

Fanlar akademiyasi akademiklari va sobiq O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasining haqiqiy a’zolari uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 4,22 barobari miqdorida, sobiq O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasining muxbir a’zolari uchun esa — mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 2,81 barobari miqdorida oylik gonorar to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tadqiqotchilariga imtiyozli shartlar asosida 131 ta xonadonlar ajratildi. Jumladan, Xorazm Ma’mun akademiyasi xodimlari uchun Xivada qurilgan yangi uyda 24 ta xonadonlarni imtiyozli shartlar asosida ajratildi.

Natijada Fanlar akademiyasi tizimida ilmiy faoliyatga jalb etilgan ilmiy xodimlar soni sezilarli darajada ko‘paydi (1453 tadan 2831 tagacha).

Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalarining olimlari tomonidan 2017-2023-yillarda olib borilgan ilmiy - tadqiqotlar natijalari asosida ilmiy jurnallarda 10000 dan ortiq ilmiy maqolalar nashr etildi. Shulardan deyarli 30 foizi xalqaro nufuzli ilmiy jurnallarda nashr etildi.

Fanlar akademiyasi tomonidan 2017-2023-yillar davrida ilmiy mahsulotlar eksportining yillik hajmi 5.5-6.0 million AQSH dollarini tashkil etib, yillar kesimida rejalashtirilgan ko‘rsatkichlardan 1.5-2.0 foizga oshib bordi.

Fanlar akademiyasida 2 ta noyob ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazi tashkil etildi, ilmiy tashkilotlarda “Tibbiy kimyo va nozik organik sintez”, “Polimerlanishni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari”, “Interpolimer komplekslar, nanostrukturali polimer metallokomplekslarni olishning fundamental asoslari”, “Tabiiy biologik xilma-xillik obyektlarini to‘r tizimli xaritalash”, “Inson mikrobiomini tadqiq qilish”, “Kamyob, endem va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simlik va hayvonot olami turlarini genetik markirovkalash”, “Global iqlim o‘zgarishlari: biologik xilma-xillikning holati va uning prognoz modellashtirish” kabi yangi ilmiy yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yildi.

Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyaning Kartaxena protokolida belgilangan “Milliy muvofiqlashtirish markazi” tashkil etildi.

Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida zamonaviy ilmiy qurilmalar bilan jihozlangan ilmiy-o‘quv Markazi tashkil etildi.

Botanika institutida “Plant Diversity of Central Asia” ingliz tilida chiqariladigan ilmiy jurnali ta’sis etildi.

Mikrobiologiya institutida “AllWellLab” MCHJ bilan xamkorlikda xususiy mablag‘lar, Islom tarakqiyet banki mablag‘lari jalb etgan holda (loyiha qiymati

100 ming AQSH dollari bo‘lgan) biotexnologik tadqiqotlar natijasida yaratilgan biopreparatlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan biotexnologik tajriba laboratoriyasi tashkil etildi.

6 ta yangi biopreparat va 8 ta diagnostikumlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Ko‘rilgan ishlar natijasida bir qator muhim ilmiy natijalarga erishildi, jumladan, ilk bor yuqori energiyadagi yadro va yadro to‘qlanishlari natijasida yangi rezonans zarracha hosil bo‘lishi dunyoda birinchi marta kashf etildi.

5 jildli “Yadroviy texnologiyalar” kitobi chop etildi.

Respublikamiz sog‘liqni saqlash muassasalari tibbiy radionuklidlar bilan to‘liq ta’minlandi, Rossiya, Germaniya, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Italiya, Polsha, Xitoy, Tailand, Hindiston, Eron, Ukraina kabi davlatlarga radionuklid mahsulotlarini o‘nlab milliard so‘m miqdorida eksport qilish yo‘lga qo‘yildi.

Saraton kasalligining ayrim turlarini davolashda qo‘llash uchun Lyutetsiy-177 radioizotopi asosida dori vositasi ishlab chiqildi.

O‘zbekistonda COVID-19 ma’lumotlari asosida COVID-19 ning og‘ir shakllarini bashorat qilishning matematik modellari ishlab chiqildi.

150 mingdan ortiq binolarning elektron texnik pasportlari shakllantirildi.

Bentonit gillari kukuni bilan qobiqlab ekish, mazkur gil va mineral o‘g‘itdan tayyorlangan suspenziya bilan bargidan oziqlantirish orqali paxtaning suvsizlikka chidamlililigi va hosildorligi 20 foizgacha oshirildi.

Respublika sanoatini import o‘rnini bosadigan sifatli grafit bilan ta’minlash uchun mahalliy grafit rudalarini flotatsiya yo‘li bilan 90-95% gacha boyitish texnologiyasi yaratildi.

94 ta uzum navi va 32 ta bug‘doyning navi uchun xalqaro standartlarga muvofiq genetik pasportlari yaratildi.

Markaziy Osiyoda ilk bor to‘r tizimli elektron xaritalash uslubi tadbiq etildi, Surxondaryo viloyatida 63 endemik tur tarqalishi ko‘rsatildi.

Qoraqalpog‘iston Ustyurtining 6,7 mln. gektarida tarqalgan 7 ta yaylov tipiga mansub 42 ta yaylov xillarining davlat kadastri tuzildi, ilk bor Qoraqalpog‘iston yaylovlarining elektron-raqamli “Yaylovlar xaritasi”, “Yaylovlardan mavsumiy foydalanish xaritasi”, “Yaylovlar sig‘imi xaritasi” ishlab chiqildi.

50 ga yaqin arab, fors va turkiy tillardagi manbalar o‘zbek tiliga izohli tarjima va asl matn shaklida ilmiy istifodaga kiritildi. Abu Rayhon Beruniyning 1050-yilligi munosabati bilan nashr qilingan alloma “Tanlangan asarlar”ining 9 jildi, 2 ta

asarining arab va fors tillaridagi asliyati shular jumlasidandir.

“Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni”, “So‘x qadimda va o‘rta asrlarda” o‘quv qo‘llanmalari chop etildi.

“O‘zbekiston san’ati tarixi (qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon)” kitobi o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etildi.

Husayn Voiz Koshifiyning fors tilidagi “Mavohibi Aliya” tafsirining avtograf nusxasi (XV asr) faksimilesi chop etildi.

“Konstitutsionnыe reformы: opыt stran mira” kitobining 3 ta jildi chop etildi.

“O‘zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida” uchinchi kitob-albom chop etildi.

O‘zbek arxeologlari ham izlanishlarida muhim kashfiyotlar qilindi. Bilamizki, Farg‘ona vodiysida o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvadorlik ilk bor bundan kamida 3 ming yil oldin yo‘lga qo‘yilgan. Bu madaniy mintaqa qadimgi xalqlarning ko‘chishlari, bosqinlar, yer qimirlashlar, saltanatlarning tashkil topishi va sivilizatsiyalarning shakllanishi bosqichlarini o‘z boshidan kechirgan. Uzoq o‘tmish to‘g‘risida yozma manbalardan tashqari negiz ma’lumot beradigan manbalar – arxeologik yodgorliklardir. Ularni asrash, tadqiq etish va keng targ‘ib etish orqali jamiyatimizni yetuk darajalarga ko‘tarishda o‘rni tengsizdir. Bu jihatdan Farg‘ona vodiysining eng yirik arxeologik esdaligi – Axsikent xarobalari muhim ahamiyatga egadir.

Qadim Farg‘ona vodiysi madaniy-arxeologik merosining durdona namunasi bo‘lgan Axsikent yodgorligida ochiq osmon ostida muzeyni tashkil qilish uchun avvalo YUNESKOning talablaridan kelib chiqib, ushbu esdalikning qo‘riqlash tegrasi aniqlandi. Tevaragi zamonaviy panjaralar bilan o‘rab olindi. Shundan keyin Axsikent yodgorligida avvalgi yillarda o‘zbek arxeologlari tomonidan o‘rganilgan obyektlardan 10 tasi tanlab olinib, ochiq osmon ostida muzeyga tayyorlandi. Ushbu 10 ta obyektda qadimgi Farg‘ona kenti, ya’ni Axsikent shaharining 1,5 ming yillik tarixi, mahobatli qurilish qoldiqlari, o‘z zamonasining buyuk olimlari, muhandislari va qo‘li gul ustalari tomonidan qurilgan inshootlar hamda murakkab yerosti kommunikatsiyalari namoyish etilgan.

Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani hududida O‘tmishga sayohat majmuasi asosan Arxeologiya muzeyi, xalqaro festival o‘tkaziladigan amfiteatr va hunarmandlar rastalaridan iboratdir. Bu majmua Axsikent arxeologiya parkining qo‘riqlash tegrasida o‘rnashgan. Arxeologiya muzeyida qadimgi shaharlar, ularning qal’alari, muxtasham binolari, ibodatxonalari, yerosti suv tizimarining maketlari, Axsikent va uning tevaragida topilgan osori-atiqalar namoyish etiladi.

Shu bilan birga, muzeyga kirgan sayyoh qadimgi Farg‘onaliklarning kundalik hayoti, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan bog‘liq ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida olib borilayotgan davlat tili – o‘zbek tilining nufuzi va mavqeini yanada oshirish, yurtimizda shakllangan xolis til siyosatini yanada takomillashtirish borasidagi ishlarning ko‘lami va salmog‘i kundan kunga oshib bormoqda. Bunda O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlarining jiddiy va muntazam sa’y-harakatlarining natijalari ham alohida o‘rin tutadi. Ular tomonidan o‘zbek tilining 80 mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalari, fan, texnika, san’at va madaniyat sohalariga oid terminlar, shevaga xos so‘zlar, ayrim tarixiy va eskirgan so‘zlarni o‘z ichiga olgan o‘zbek lotin yozuvidagi 6 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nashrga tayyorlanib, chop etildi va keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. O‘zbek tilining muhtasham so‘z boyligini namoyish etuvchi 2 jildli “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati” nashrdan chiqdi. O‘zbek tilining imlo qoidalari asosida o‘zbek tilining katta va o‘quv imlo lug‘atlari tayyorlandi va keng ommaga taqdim etildi. O‘zbek tilining ifoda imkoniyatlarini ko‘z-ko‘z qiluvchi “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” chop etildi. Xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini yorqin ifodalaydigan, uning teran va o‘ziga xos milliy-lisoniy idrokini aks ettiradigan so‘z va iboralar jamlangan “O‘zbek xalq so‘zlari” lug‘ati yaratildi.

Institutning adabiyotshunos olimlari tomonidan Alisher Navoiyning 10 jildli “Mukammal asarlari to‘plami” nashrga tayyorlandi va nashr etildi, 4 jildli “Navoiy qomusi” tayyorlanib, chop etilish arafasida turibdi. Hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari yoritilgan 2 jildli “Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon” fundamental tadqiqoti yaratilib, nashr etildi. Institut folklorshunoslari tomonidan dostonlar, xalq qo‘shiqlari, ertaklar, terma, afsona, rivoyat, askiya, lof, latifa va xalq og‘zaki poetik ijodining boshqa janrlarini o‘z ichiga olgan 100 jildli “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” nashrga tayyorlanmoqda, bu ulkan va qiyossiz boylikning30 jildi chop etilib, kitobxonlar qo‘liga yetib bordi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi qo‘lyozmalarining 25000 dan ortiq asarlar tavsifini o‘z ichiga olgan elektron katalogi yaratildi va ishga tushirildi.

So‘nggi yillarda Fanlar akademiyasining Rossiya Fanlar akademiyasi, Belarussiya va Qirg‘iziston Milliy Fanlar akademiyasi, Xitoy Fanlar akademiyasi, Mo‘g‘uliston, Tojikiston, Isroil Fanlar akademiyasi kabi yirik ilmiy muassasalar bilan xalqaro ilmiy-texnik aloqalari sezilarli darajada mustahkamlandi. Fanlar

akademiyasi “Bir belbog‘, bir yo‘l” tashabbusi doirasida xalqaro ilmiy tashkilotlar alyansining ta’sischilaridan biriga aylandi.

“Kurchatov instituti” Milliy tadqiqot markazi bilan ilmiy hamkorlik shartnomasi asosida keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshiririlmoqda.

Shuningdek, Fanlar akademiyasining xalqaro tadqiqot markazlari bilan ikki tomonlama aloqalari kengaydi, dori ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston-Xitoy markazi ochildi, qator institutlarda qo‘shma O‘zbekiston-Xitoy ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

Fanlar akademiyasi YUNESKO, MAGATE, MAAN va TWAS xalqaro tashkilotlari, Rossiya, Ukraina, Belorussiya, MDH va boshqa mamlakatlar, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarning Fanlar akademiyalari bilan samarali ijodiy aloqalar o‘rnatgan. Fanlar Akademiyasi Ilmiy-tadqiqot institutlari xorijiy mamlakatlarning bir qator yetakchi ilmiy markazlari va tashkilotlari bilan ikki tomonlama aloqalarni o‘rnatgan.

Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat byudjetidan moliyalashtirishga o‘tkazilishi, stajyor-tadqiqotchilar instituti tashkil etilishi, olimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, uy-joy bilan ta’minlash borasidagi qo‘llab-quvvatlashlaringiz, yordamingiz uchun Akademiya tizimida faoliyat yuritayotgan har bir ilmiy xodim nomidan, har bir yosh olim nomidan shaxsan cheksiz minnatdorchilik va yuksak ehtiromimni bildiraman. O‘ylaymizki, bu e’tiboringiz kelajakda mamlakatimiz ilm-fani, xalqimizning intellektual salohiyati rivojlanishiga xizmat qiladi.

Fanlar akademiyasi prezidenti

akademik, B.S.Yuldashev